

SIFAT SO'Z TURKUMIDA VALENTLIK

Beginqulova Sevara Faxriddinovna

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12199676/>

Anontatsiya. Ushbu maqolada sifat so'z turkumining valentlikka ta'siri, valentlik tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda uning nutqimizdagi o'rni misollar orqali yoritilgan. So'zning nutqda o'rganilishi hamda uning boshqa so'zlar bilan birika olish qobiliyati aytib o'tilgan.

Kalit so'z: valentlik, lug'aviy valentlik, semantik valentlik, sintaktik valentlik, grammatik shakl valentligi, so'z tizmasi valentligi.

VALENCE AS AN ADJECTIVE

Abstract. This article provides information about the effect of adjectives on valence, the concept of valence and its types, and its role in our speech is highlighted through examples. The study of the word in speech and its ability to combine with other words are mentioned.

Key words: valence, lexical valence, semantic valence, syntactic valence, grammatical form valence, word string valence.

ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ПРИЛАГАТЕЛЬНОЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация о влиянии прилагательных на валентность, понятие валентности и ее виды, а также на примерах освещена ее роль в нашей речи. Упоминается изучение слова в речи и его способности сочетаться с другими словами.

Ключевые слова: валентность, лексическая валентность, семантическая валентность, синтаксическая валентность, валентность грамматической формы, валентность словесного ряда.

Tilshunoslikda XX asrda lisoniy birlikning substansial ma'nosi bormi yoki yo'qmi degan savol o'rta tashlandi. Jahon tilshunosligida birinchi bo'lib G.Paul asos soldi va substansial dialektika maktabini ochdi. O'zbek tilshunosligida XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida Azim Xojiyev, R.Rasulov va Eltazarovlar valentlik va substansial tilshunoslik yuzasidan tadqiqotlar olib bordilar.

Valentlik atamasi dastlab kimyo fanidan kirib kelgan va uni kimyoviy atama sifatida ko'ramiz. Tilshunoslikdagi valentlik tushunchasining mohiyati ham kimyo fanidagidek. Valentlik bu — lisoniy birliklarning birikish va biriktirish imkoniyatidir. Birikishi lozim bo'lgan leksemalar

ma'no va grammatik jihatdan mos bo'lishi lozim. Bunga: it vovulladi, chumchuq sayradi, eshak hangradi, odamlar kuldi, ot kishnadi, so'zlar yozildi, shamol esdi kabi misollarni keltirish mumkin.

Bir leksemaning ongdagi birikish imkoniyati valentlik ekan, uning nutqda voqelanishi sintaktik aloqa hisoblanadi. Masalan, bir elementni olaylik, uning valentligi ro'yobga chiqmagan, namoyon bo'lishi uchun sharoit talab etiladi. Lisoniy birlik ham shunday birikish va biriktirish imkoniyatiga ega. Valentlik ham insoniyat, jamiyat a'zolari ongida yashaydi. Masalan, *yoz* leksimasini olaylik, kishi ongida bir qancha bo'sh o'rniga ega holatda mavjud. *Yoz* leksimasi nutqda voqelanib, bir qancha leksema bilan birikish imkoniyatiga ega. Bu leksemani sifatlar bilan kengaytiramiz; *chiroyli yoz, katta yoz, kichik yoz, mayda yoz, bejirim yoz, lotincha yoz, ruscha yoz* va hakoza. Ammo yuqorida aytganimday leksemalar hamma bir turdagi ma'no tashiydigan so'zlar bilan birikib ketolmaydi. Chiroyli yoz birikmasi o'rniga *go'zal yoz* deyolmaymiz yo *latofatli yoz* deyolmaymiz. Turli xil elementlar bir biriga mos bo'lgandagina birika olganligi kabi lisoniy birlik ham ma'no va grammatik jihatdan muvofiq bo'lmog'i lozim. Boshqacha aytganda biriktiruvchi leksema birikishi lozim bo'lgan leksemani nafaqat ma'no jihatdan, balki bir grammatik shaklda ham mos bo'lishini talab etadi. Shunga ko'ra valentlik lug'aviy va sintaktik qatlamga ajraladi.

Lug'aviy valentlik — ikki birikuvchi leksemaning ma'no jihatdan birikishi. Masalan, sifat va otlarning birikuvida ko'radigan bo'lsak, *o'ktam yigit, latofatli qiz*; biz *latofatli yigit* yoki *o'ktam qiz* deya olmaymiz. Yana misol qilib “Eshak qattiq hangradi”, “Qiz sokin kuyladi”ni olishimiz mumkin. Xuddi shunday hangramoq so'zi eshakka hos bo'lganligi uchun “mayin, sokin” so'zlari bilan birika olmaydi. Bunday birikmalardan foydalansak juda qo'pol g'alizlik qilgan bo'lamiz.

Semantik valentlikni sodda qilib so'z turkumlarining birika olish qobiliyati desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, *chiroyli qadam* — sifat + ot, *shahdam qadam bosmoq* — ravish + fe'l, *ko'p daftar* — ravish + ot, *o'qiydigan talaba* — sifatdosh + ot, *ko'plab bahonalar* — ravishdosh + ot.

Sintaktik valentlik — tobe hokimlik munosabatidagi izchil birikishdir. Bunga yana sifatlardan misol qilib quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: *Ko'zining qorasiga qaradi* — boshqaruvli aloqa; *go'zal qiz* — bitishuvli aloqa; *Inson yalqovining bahonasi ko'p* — moslashuvli aloqa.

Grammatik shakl valentligi. Lekseмага Grammatik shakl qo'shilganda ularning birikuvchilari orasida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Grammatik shakl o'zi qo'shilib kelgan leksemaning ma'noviy va sintaktik valentligini yo kengaytiradi, yoki cheklaydi. Buni tushunish uchun *bola* leksemasini grammatik shaklsiz va grammatik shakllangan holatida valentlik imkoniyatini taqqoslash kifoya:

<i>Katta</i>	<i>bola</i>
<i>Kichik</i>	
<i>Yig'loqi</i>	
<i>Yoqimtoy</i>	
<i>Gapdon</i>	
<i>O'qimishli</i>	
<i>A'lochi</i>	
<i>Kichik</i>	<i>bolacha</i>
<i>Yig'loqi</i>	
<i>Yoqimtoy</i>	
<i>Gapdon</i>	

Ayon bo'ladiki, yuqoridagi jadvalda *bola* leksemasining birikuv imkoniyati kichraytirish - *cha* qo'shimchasi hisobiga toraygan.

Sifat so'z turkumi sifatida tilshunoslikda leksik-semantik, morfologik, uslubiy, formal-funksional jihatidan o'rganilgan. Tarixga nazar solsak, dastlabki tekshirish olib borgan ko'p turkologlar turkiy tillar tizimida sifatlarning alohida so'z turkumi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Ular sifat va ot kategoriyalarini tashqi shakllariga asoslanib bir o'ringa qo'yib tekshirgan [M.Sodiqova, 1974, 4]. Qozoq-qirg'iz, turk-tatar tillari ustida ishlagan P.M.Melioranskiy (1894) va M.A.Kazembek (1839) kabi tilshunos olimlar sifat kategoriyasini alohida so'z turkumi tarzida ajratib beradi va sifatning o'ziga xos chog'ishtirma daraja belgisi borligini ta'kidlab o'tishadi [M.Sodiqova, 1974, 4].

Hozirgi o'zbek tilshunosligi fani asrimizning 20-yillarida vujudga kelgan bo'lib, unga Fitrat va uning zamondoshlari Elbek, Munavvar Qori, G'ozzi Olim, Qayum Ramazon kabi olimlar tamal toshini qo'ygan desak adashmagan bo'lamiz. Tilimizda mavjud jamiki so'zlar u mustaqil so'z bo'ladimi, yordamchi so'z bo'ladimi, o'zining butun ma'no xususiyatlari, tovlanishlari boshqa bir so'z bilan bog'lanish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu esa, albatta, valentlik, ya'ni so'zlarning o'zaro bog'lanish va birikish imkoniyati orqali yuzaga chiqadi. Qaysidir so'zlarning bu imkoniyati keng, qaysilarida esa tor.

Valentlik to'g'risida tilshunoslikda o'xshash va farqli qarashlar talaygina. Valentlik bu sintaksis ichidagi jarayonlarning zahirida yotgan juda muhim bir tayanch yoki asosdir. Valentlik so'zga substansial yondashuvning natijasi sifatida so'zning ichki imkoniyati, so'zga xos muayyan

semantik xususiyat sifatida baholanadi. Murakkab tushuncha ifodalovchitutq birliklaridan tortib, fikr ifodalovchi nutq birliklarining yuzaga kelishi bevosita soʻz valentligi bilan bogʻliqdir. Ayni vaqtda soʻzlarning nutqda birikib kelishi mutlaq hodisa emas, balki nisbiydir. Chunki soʻzlar grammatik model taqazo etgan har qanday soʻzlarga emas, balki ulardan baʼzilariga birikadi.

Demak, soʻzlarning oʻzaro birikish imkoniyati chegaralangan boʻlib, bu har bir soʻzning maʼno imkoniyati bilan oʻlchanadi.

Aniqrogʻi, birikuvchi soʻz sememalarining semalar tarkibida shu sememalarni biriktirish qobiliyatiga ega, har ikkala sememaga umumiy xos semantik komponentlar (klassemlar) boʻlib, semantik sintagma sememalari shu semalar orqali oʻzaro birikadi, mantiqiy munosabatga kirishadi. Koʻrinadiki, soʻzlar baʼzi soʻzlar bilan semantik birikib, sintaktik konstruksiyani hosil qilsa, boshqa soʻzlar bilan faqat lisoniy fakt, nominativ birlik xarakteriga egaligi bilangina umumiylikni hosil qiladi, yaʼni ular oʻzaro mantiqiy aloqaga kirishmaydi. Bunday munosabatga kirishganda ham, bu faqat sunʼiy, shaklan boʻlib, obyektiv turlicha faktlar bilan tasdiqlanmaydi.

Qiyoslang: semiz xolodilnik, toʻrtburchak velosiped, odamni oʻqimoq kabilar.

Xulosa qilib aytganda tilshunoslikdagi valentlik tushunchasi mohiyati kimyo fanidagiga oʻxshab birikish imkoniyatiga ega. Valentlik tushunchasi nutqimizni ravon va bejirim qilish uchun muhim hisoblanadi. Soʻz birikmalarini toʻgʻri qoʻllay olmaslik nutqimizda sezilarli dagʻallikni keltirib chiqaradi. Soʻzlayotganimizda soʻzlarimiz hamda gaplarimiz bir-biriga maʼno va shakl jihatdan mos kelishi lozim.

REFERENCES

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi ozbek adabiy tili. Toshkent. 2020.
2. B.Mengliyev . Hozirgi ozbek tili. Toshkent. 2018.
3. Cyberleninka.ru
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)
5. Sayfullayeva va hammualliflar. “Hozirgi Oʻzbek tili” Toshkent-2023. “Tafakkur avlodi” B.301-380
6. Azamat Oʻrolov “Oʻzbek tili morfologiyasida nomutanosiblik”monografiya.Guliston-2022 “Ziyo nashr-matbaa”XK B-63-94.
7. Maqsuda odigova “Hozirgi oʻzbek tilida sifat” Toshkent -1974. “Fan”